

**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TA'LIMIGA  
QARATILAYOTGAN E'TIBOR**

***Ro'zmatova Mahliyo Baxrom qizi-***

*Urganch davlat*

*pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya*

*nazariyasi va metodikasi (mактабгача та'лим)*

*mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

*“...Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz-yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat...”*

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev***

Biz “Yoshlar mamlakti” hisoblanmish O'zbekistonimizni hech ikkilanmasdan imkoniyatlar diyori deya atay olamiz. Bugungi kunda har bir yosh uchun tashlagan qadami to'la imkoniyatlar mavjud. Bunday sharoitda O'zbekistonda yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tiborni har qadamda his qilamaslikni iloji yo'q. Biz yoshlar ana shunday tabarruk zaminda tug'ilib o'sganimiz, shu aziz Vatan farzandi ekanimizdan behad baxtiyormiz. Zotan, bugun yurtimizda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan ezgu va xayrli ishlar, tub islohotlar ko'لامи yanada kengayib bormoqda. Bu haqda gap ketganda, 2016-yil 15-sentabrda imzolangan O'RQ-406-son “*Yoshlarga oid davlat siyosati to 'g'risida*”gi qonunni alohida ta'kidlashimiz joiz. Chunki ushbu hujjat mamlakatimizda yoshlarga oid olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tardi deya hech ikkilanmasdan ayta olamiz. Mamlakatimizdagi bu imkoniyatlar nafaqat shu hududda istiqomat qilayotgan yoshlar uchun, balki xalqaro maydonda faoliyat yuritib, o'z ustida ishlayotgan yoshlar uchun ham juda foydalidir. Misol qilib, davlatimiz rahbarining “Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o'ylayman. Mana, bugungi kunda qancha-qancha

yoshlarimiz chet ellarda ta’lim olmoqda, mehnat qilmoqda. Albatta, ularning orasida o‘z yo‘lini topib, begona yurtda hech kimdan kam bo‘lmay yashayotganlari ham ko‘p. Lekin Vatan sog‘inchi har qanday odamni ham qiyinaydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloqa o‘rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizga qaytish istagida bo‘lganlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Shu maqsadda O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini tuzish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli sharoit yaratib berishimiz kerak” degan so‘zlarini tasdig‘i sifatida 2017-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi” nodavlat notijorat tashkiloti hukumat qarori bilan tashkil etilgan, hamda 2019-yil 5-avgustda “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Shu davrdan buyun o‘z faoliyatini yuritib kelayotgan bu assotsatsiya “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning bir bandi sifatida o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek yoshlarga qaratilayotgan e’tibor haqida gapiradigan bo‘lasak, mamlakatimizda 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, -deb e’lon qilindi. Bu yurtimiz yoshlarining mamlakatimiz ravnaqi va yuksalishi, fuqarolarning farovon turmush, munosib hayotga ega bo‘lishi, jahondagi ilg‘or jamiyatlar safidan o‘rin olishi kabi maqsadlarni hayotga tatbiq etishdagi o‘rni va roli zalvorli ekanligining e’tirofi bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlari bu sohadagi islohotlarni yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarishimiz uchun zarur sharoitlarni yuzaga keltirayotgani hech birimizga sir emas.

2023-yilning 11-sentabr sanasida “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni bizga ma’lum.

Ushbu strategiyasining yoshlarga va tadbirkorlikka oid maqsadlariga aynan uyg‘undir. Xususan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash maqsadida har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalg qilish, har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish, maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish, “Top-500” ga kiramagan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgandir bu ham yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarga yorqin dalildir.

Shu qatorda oliy ta’lim olayotgan yoshdagi yoshlar uchun oliy ta’lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlarga aytishimiz mumkin yigit-qizlarning malakali mutaxassis bo‘lib hayotga kirib kelishida muhim omil bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda bu borada qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildiki, ular yoshlarning intilish va iqtidorini qo’llab-quvvatlash, rag‘batlantirishda, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishda yangi tizimni shakllantirdi.

Yana ham quvonarli tomoni shundaki, zamon talablari va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida bugungi yoshlarning talab va ehtiyojlarini o‘rganib, yangidan-yangi imtiyoz va imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslarini alohida ta’kidlash lozim. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e’tibori, ayniqsa, ta’lim islohotlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug‘i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Xorijiy ta’lim muassasalaridan o‘zimizdagи oliy o‘quv yurtlariga o‘qishini ko‘chirish, test jarayonlari, bir vaqtning o‘zida 5 ta OTMda bilimini sinab ko‘rish masalalalari buning yorqin misoli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Albatta bu

kunlarni asrlar davomida xalqimizning orzusi bo‘lgan. Bu orzu “jadidchilik” davriga kelib yanada jadallahsgan. Har bir jadidchi ma’rifatparvar olimning orzusi vatanida ilm-fanni yuksaltirish, ziyoli kishilar ko‘lamini kengaytirish, zaminga ma’rifat urug‘larini sepish edi.

Shuningdek, ikki va undan ortiq farzandi oliy o‘quv yurtida shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalarga imtiyozli ta’lim krediti berish yo‘lga qo‘yildi. Yana ham e’tiborli ta’moni shundaki, bugungi kunda davlatimiz rahbari tamonlaridan “*xotin-qizlar, ayollarning oliy ta’lim ummuman ta’limga kengroq qamrab olishga harakat qilinmoqda. Bu harakatning yorqin namunasi sifatida har bir talaba ayol-qizlar uchun imtiyozli, foizsiz kreditlar joriy qilingan. Bundan tashqari, magistratura bosqichida tehsil olmoqchi bo‘lgan ayol va qizlar uchun to‘lov-shartnoma davlat tomonidan qoplab beriladigan bo‘ldi. Ushbu imloniyatdan foydalanib men o‘zim ham hozirda Urganch davlat pedagogika institutida magistratura bosqichida tahsil olyapman. Bizga bugungi kunda institutimiz tomonidan ham ko‘plab imkoniyatlar va sharoitlar yaratilmoqda. Biz yoshlardan talab qilinadigan yagona narsa faqat va faqat o‘qish, yuksak marralarni zabit hisoblanadi.*

Yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olishi uchun ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha eng yuqori ballarni to‘plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to‘liq qoplab beriladi. Uchinchidan, izlanuvchi yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida “Yosh olimlar” innovatsion tanlovi uchun 30 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilganining o‘zi ham katta imkoniyatdir. Bularning barchasi ertamiz egalari bo‘lgan biz kabi yosh avlodni tarbiyalashdek ilmi kishiga aylantirishdek ulug‘ maqsad yo‘lida qilinyapti.

Yoshlar-innovatsiyalar, g‘oya va yechimlarning bitmas-tuganmas manbaidir. Bugungi kunda yoshlar faolligi har qachongidan ham muhim, zero, ular jamiyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi asosiy kuchdir. Shu bois, aynan yosh avlod zimmasiga yorqin kelajak barpo etish vazifasi ishonib topshirilgan.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish kontseptsiysi, uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Kontseptsiyada hal etishga qaratilgan asosiy vazifalar qatoridan jismonan sog‘lom, ma’nan rivojlangan yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy islohotlarga faol jalg etish masalalari o‘rin olgan. Yoshlar bilan ishslash samaradorligini baholashning yagona mezonlari, yoshlar siyosatini baholashning milliy ko‘rsatkichi ishlab chiqilmoqda.

Yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e’tibor, g‘amxo‘rlik mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning eng ustuvor yo‘nalishidir. Zero, yoshlar bu mamlakat kelajagi ekanligi va butun jamiyatning istiqboldagi rivojlanishi ular faoliyatining boshlang‘ich sharoitlariga bog‘liqligi bilan belgilanadi.

Muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak bizga ma’lumki sog‘lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Yoshlarga oid davlat siyosati avvalo har bir davlatning ichki siyosati bo‘lib, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosati hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Bu sohadagi izchil va hayotchan islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayon hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.
2. 2016-yil 15-sentabrda imzolangan O‘RQ-406-son “*Yoshlarga oid davlat siyosati to ‘g‘risida’*”gi qonun.

3. 2019-yil 5-avgustda “O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
4. 2023-yilning 11-sentabr sanasida “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni